



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 08 | pp. 155-160 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AUDIT TIZIMINI JAHON TAJRIBASI ASOSIDA TASHKIL ETISH MASALALARI



Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li,

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida audit tizimini jahon tajribasi asosida tashkil etish masalalari ko'rib chiqiladi. Rivojlangan davlatlar (AQSh, Germaniya, Fransiya) va rivojlanayotgan davlatlar (Rossiya, Xitoy, Gruziya) audit tizimlari tahlil qilinib, ularning o'ziga xos jihatlari o'r ganiladi. O'zbekiston uchun xalqaro standartlarni joriy etish, reguliyativ nazoratni kuchaytirish, auditorlarning kasbiy malakasini oshirish va moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Maqolada audit tizimini takomillashtirish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va investitsion muhitning yaxshilanishiga hissa qo'shish mumkinligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: audit tizimi, xalqaro tajriba, xalqaro audit standartlari, moliyaviy hisobotlar, auditorlarning mustaqilligi, shaffoflik, reguliyativ nazorat.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы организации системы аудита Республики Узбекистан на основе международного опыта. Анализируются аудиторские системы развитых стран (США, Германия, Франция) и развивающихся стран (Россия, Китай, Грузия), изучаются их особенности. Разработаны рекомендации для Узбекистана по внедрению международных стандартов, усилению регулятивного контроля, повышению профессиональной квалификации аудиторов и обеспечению прозрачности финансовой отчетности. Отмечается, что совершенствование системы аудита может способствовать стабильному развитию экономики страны и улучшению инвестиционного климата.

Ключевые слова: система аудита, международный опыт, международные стандарты аудита, финансовая отчетность, независимость аудиторов, прозрачность, регулятивный контроль.

Abstract: This article examines the issues of organizing the audit system of the Republic of Uzbekistan based on international experience. The audit systems of developed countries (USA, Germany, France) and developing countries (Russia, China, Georgia) are analyzed, and their specific features are studied. Recommendations are developed for Uzbekistan to implement international standards, strengthen regulatory oversight, enhance the professional qualifications of auditors, and ensure transparency of financial reporting. It is emphasized that improving the audit system can contribute to the stable development of the country's economy and the improvement of the investment climate.

Keywords: audit system, international experience, International Standards on Auditing, financial reporting, auditors' independence, transparency, regulatory oversight.

Kirish

Bugungi global iqtisodiyot sharoitida moliyaviy axborotning ishonchliligi, shaffofligi va haqqoniyligi nafaqat korxonalar va investorlar uchun, balki butun jamiyat uchun katta ahamiyatga ega. Jahon miqyosida iqtisodiy integratsiya jarayonlari chuqurlashib borar ekan, korxonalar faoliyatining ochiqligi, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mos kelishi va audit tizimining samaradorligi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Audit tizimi korxona va tashkilotlarning moliyaviy faoliyatini mustaqil ravishda baholash, xatolik va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berish orqali moliyaviy boshqaruvni yaxshilashga xizmat qiladi. Shuningdek, audit investitsion muhitni yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi o'z iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, bozor mexanizmlarini rivojlantirish va xalqaro iqtisodiy hamjamiyatga integratsiyalashish yo'lida qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Ushbu jarayonda audit tizimini jahon tajribasi asosida tashkil etish, xalqaro standartlarni joriy etish va milliy qonunchilikni takomillashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Audit tizimini takomillashtirish va xalqaro tajribani o'rganish borasida ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Xalqaro Audit Standartlari (ISA) auditorlar uchun yagona metodologiyani ta'minlaydi va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshiradi. Hayes, D., Wallage, P., & Gortemaker, H. (2014) o'zlarining "Principles of Auditing: An Introduction to International Standards on Auditing" kitobida xalqaro standartlarning auditorlik amaliyotidagi o'rnini batafsil yuritadilar. Ular xalqaro standartlar auditorlik jarayonining sifatini oshirishini va xalqaro hamjamiyatda ishonchni mustahkamlashini ta'kidlaydilar [1].

Auditning mustaqilligi moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi. Mautz, R. K., & Sharaf, H. A. (1961) o'zlarining "The Philosophy of Auditing" asarida auditorlarning mustaqilligi va xolisligi prinsiplari haqida so'z yuritadilar. Ular auditorlik etikasi va professional standartlar auditorlik jarayonining samaradorligini ta'minlashda muhim ekanligini ko'rsatadilar [2].

Audit tizimini tashkil etishda rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Gray, I., & Manson, S. (2011) o'zlarining "The Audit Process: Principles, Practice and Cases" kitobida Buyuk Britaniya va AQShdagi auditorlik amaliyotini batafsil tahlil qiladilar. Ular auditorlik jarayonining turli bosqichlari, risklarni baholash va ichki nazorat tizimining o'rni haqida ma'lumot beradilar [3].

Audit standartlarini milliy qonunchilikka integratsiya qilish bo'yicha Humphrey, C., & Loft, A. (2013) "Challenges in Implementing Audit Reforms" maqolasida yuritadilar. Ular auditorlik islohotlarini amalga oshirishda duch kelinadigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari haqida so'z yuritadilar [4].

Tahlil va natijalar

Audit tizimini jahon tajribasi asosida takomillashtirish maqsadida rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Quyida AQSh, Germaniya va Fransiya kabi rivojlangan davlatlar hamda Rossiya, Xitoy va Gruziya kabi rivojlanayotgan davlatlarning audit tizimlari tahlil qilinadi.

1-jadval. AQSh, Germaniya va Fransiya audit tizimlarining taqqoslanishi [5]

Ko'rsatkichlar	AQSh	Germaniya	Fransiya
Audit standartlari	<ul style="list-style-type: none"> - AQSh Umumiy Qabul qilingan Audit Standartlari (GAAS) - Sarbanes-Oxley Act (2002) orqali qattiqroq nazorat 	<ul style="list-style-type: none"> - Xalqaro Audit Standartlari (ISA) - Milliy standartlar bilan uyg'unlashgan 	<ul style="list-style-type: none"> - Xalqaro Audit Standartlari (ISA) - Milliy standartlar bilan uyg'unlashgan
Regulyativ organlar	<ul style="list-style-type: none"> - Public Company Accounting Oversight Board (PCAOB) - Securities and Exchange Commission (SEC) 	<ul style="list-style-type: none"> - Auditorlar palatalari - Federal Audit Office (Bundesrechnungshof) 	<ul style="list-style-type: none"> - Compagnie Nationale des Commissaires aux Comptes (CNCC) - Autorité des marchés financiers (AMF)
Auditning mustaqilligi	<ul style="list-style-type: none"> - Qonun bilan mustahkamlangan - Manfaatlar to'qnashuviga qat'iy qoidalar 	<ul style="list-style-type: none"> - Yuqori darajada ta'minlangan - Qattiq nazorat mavjud 	<ul style="list-style-type: none"> - Qonunchilik bilan ta'minlangan - Auditorlar uchun xatti-harakat kodeksi
Kadrlar tayyorlash	<ul style="list-style-type: none"> - CPA (Certified Public Accountant) litsenziyasi - Doimiy malaka oshirish talab etiladi 	<ul style="list-style-type: none"> - Universitet ma'lumoti va amaliy tajriba - Sertifikatlash tizimi mavjud 	<ul style="list-style-type: none"> - Ma'lum ta'lim va tajriba talab etiladi - Doimiy malaka oshirish tizimi
Moliya nazorati va shaffoflik	<ul style="list-style-type: none"> - Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi yuqori - Korporativ boshqaruv qoidalari qat'iy 	<ul style="list-style-type: none"> - Moliyaviy axborotning shaffofligi ta'minlangan - Korporativ boshqaruv me'yordari amal qiladi 	<ul style="list-style-type: none"> - Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi qonunchilik bilan ta'minlangan - Hisobdorlik yuqori darajada

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, audit tizimining samaradorligi uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

Xalqaro va milliy standartlarning uyg'unligi: Ushbu davlatlar xalqaro audit standartlarini milliy qonunchilikka integratsiya qilgan, bu esa audit jarayonining sifatini oshiradi.

Qattiq regulyativ nazorat: Maxsus regulyativ organlar audit faoliyatini nazorat qiladi va ularning mustaqilligini ta'minlaydi.

Auditorlarning malakasi: Auditorlar uchun qat'iy ta'lif va sertifikatlash talablari mavjud, bu esa ularning kasbiy malakasini oshiradi.

Shaffoflik va hisobdorlik: Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va korporativ boshqaruvning yuqori darajasi investorlarga ishonch beradi.

2-jadval. Rossiya, Xitoy va Gruziya audit tizimlarining taqqoslanishi [6]

Ko'rsatkichlar	Rossiya	Xitoy	Gruziya
Audit standartlari	- Milliy audit standartlari - ISA'ga o'tish jarayoni davom etmoqda	- Xalqaro Audit Standartlari (ISA) asosida - Milliy standartlar bilan uyg'unlashgan	- Xalqaro Audit Standartlari (ISA) to'liq joriy etilgan
Regulyativ organlar	- Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi - Auditorlar palatalari	- Xitoy Moliya vazirligi - Xitoy Sertifikatlangan Jamoatchilik Auditorlari Instituti (CICPA)	- Gruziya Moliya vazirligi - Sertifikatlangan Auditorlar va Buxgalterlar Instituti
Auditning mustaqilligi	- Qonunchilikda belgilangan - Amaliyotda muammolar mavjud	- Qonun bilan ta'minlangan - Manfaatlar to'qnashuvi nazorat qilinadi	- Qonuniy jihatdan ta'minlangan - Xalqaro me'yordarga mos keladi
Kadrlar tayyorlash	- Imtihon va tajriba talab etiladi - Malaka oshirish rivojlanmoqda	- Qat'iy sertifikatlash talablar - Doimiy malaka oshirish	- Xalqaro sertifikatlarga ega bo'lish rag'batlantiriladi - Malaka oshirish dasturlari mavjud
Moliya nazorati va shaffoflik	- Shaffoflik oshirilmoxda - Korporativ boshqaruv me'yordari joriy etilmoqda	- Moliyaviy axborotning shaffofligi muhim - Davlat nazorati kuchli	- Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi ta'minlangan - Xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlik mavjud

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Tahlilimiz natijasida, rivojlanayotgan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadi:

Xalqaro standartlarni joriy etish: Xitoy va Gruziya audit tizimida Xalqaro Audit Standartlarini joriy etish orqali moliyaviy hisobotlarning ishonchlilagini oshirmoqda [7].

Regulyativ muammolar: Rossiyada regulyativ nazorat va auditning mustaqilligi borasida ba'zi muammolar mavjud, bu esa audit sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [8].

Kadrlar malakasini oshirish: Ushbu davlatlar auditorlarning kasbiy malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda, xalqaro sertifikatlarni olish rag'batlantirilmoqda [9].

Takliflar

Yuqorida tahlil asosida O'zbekiston Respublikasi uchun quyidagi takliflarni berish mumkin:

1. Xalqaro standartlarni joriy etish: Xalqaro Audit Standartlarini milliy qonunchilikka integratsiya qilish orqali moliyaviy hisobotlarning ishonchlilagini oshirish va xalqaro investorlarga ishonch yaratish [10].

2. Regulyativ organlarni mustahkamlash: Audit faoliyatini nazorat qiluvchi mustaqil regulyativ organlarni tashkil etish yoki mavjudlarini mustahkamlash, ularning samaradorligini oshirish.

3. Auditorlarning mustaqilligini ta'minlash: Auditorlarning mustaqilligini qonunchilik bilan mustahkamlash, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun qat'iy qoidalarni joriy etish.

4. Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish: Auditorlarni xalqaro sertifikatlarga ega bo'lishlarini rag'batlantirish, malaka oshirish dasturlarini kengaytirish, xalqaro tajriba almashinuvini tashkil etish.

5. Shaffoflikni oshirish: Moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish uchun korporativ boshqaruv me'yorlarini joriy etish, bu esa investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasida audit tizimini jahon tajribasi asosida takomillashtirish iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, investitsion muhitni yaxshilash va xalqaro hamjamiyat bilan integratsiyalashuvni tezlashtirish uchun zaruriy shartdir. Xalqaro standartlarni joriy etish, regulyativ nazoratni kuchaytirish, auditorlarning kasbiy malakasini oshirish va moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlash orqali ushbu maqsadlarga erishish mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida audit tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bu nafaqat moliyaviy axborotning ishonchlilagini oshiradi, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ham mustahkamlaydi. Shu sababli, davlat organlari, auditorlik tashkilotlari va korxonalar o'rtaida hamkorlikni kuchaytirish va umumiy maqsadlarga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hayes, D., Wallage, P., & Gortemaker, H. (2014). *Principles of Auditing: An Introduction to International Standards on Auditing*. Pearson Education.
2. Mautz, R. K., & Sharaf, H. A. (1961). *The Philosophy of Auditing*. American Accounting Association.
3. Gray, I., & Manson, S. (2011). *The Audit Process: Principles, Practice and Cases*. Cengage Learning EMEA.
4. Humphrey, C., & Loft, A. (2013). Challenges in Implementing Audit Reforms. *Accounting, Auditing & Accountability Journal*, 26(2), 328-361.

5. International Federation of Accountants (IFAC). (2020). Xalqaro Audit Standartlari. IFAC rasmiy veb-sayti: www.ifac.org
6. Public Company Accounting Oversight Board (PCAOB). (2023). Auditing Standards. PCAOB rasmiy veb-sayti: www.pcaobus.org
7. Federal Audit Office (Bundesrechnungshof). (2022). Annual Report. Bundesrechnungshof rasmiy veb-sayti: www.bundesrechnungshof.de
8. Compagnie Nationale des Commissaires aux Comptes (CNCC). (2023). Audit Profession in France. CNCC rasmiy veb-sayti: www.cncc.fr
9. Xitoy Sertifikatlangan Jamoatchilik Auditorlari Instituti (CICPA). (2022). Professional Standards. CICPA rasmiy veb-sayti: www.cicpa.org.cn
10. Gruziya Moliya Vazirligi. (2021). Audit va Buxgalteriya Hisobi to'g'risidagi Qonun. Gruziya Moliya Vazirligi rasmiy veb-sayti: www.mof.ge

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

